UDK: 821.512.133:001.891(092)

PO‘LATJON QAYYUMIY FENOMENI

L.M. Axmadaliyev

Maqolada Po‘latjon Qayyumiyning ilmiy merosi, xususan, tazkirashunoslik faoliyati xususida so‘z boradi. Uning amalga oshirgan ishlari, jadidchilik va marifatparvarlik, pedagogik faoliyati borasida ham qarashlar umumlashtirilgan, izoh va sharhlar havola qilingan. Olim yozgan va tarjima qilgan tazkiralarning tarkibiy tuzilishi va mundarijasi, ularning o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan ahamiyatiga ham diqqat qaratilgan. P.Qayyumiy hayoti va ilmiy faoliyatiga doir manbalar jadvallarda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: *tazkira, qo‘lyozma, xattot, litografiya, adabiyotshunoslik, avtograf, arxiv.*

В статье говорится о научном наследии Полатджона Каюми, в частности, о его деятельности как тазкировед. Обобщены его представления о творчестве, борьбе и просветительстве, педагогической деятельности, изложены примечания и комментарии. Также обсуждались структура и содержание тазкире, написанных и переведенных ученым, их значение в узбекском литературоведении. Источники его жизни и научной деятельности представлены на основе таблиц.

Ключевые слова: *тазкире, рукопись, каллиграфия, литография, литературоведение, автограф, архив.*

Kirish

Po‘latjon Qayyumiy – XIX asrning so‘nggi choragidan to XX asrning ikkinchi yarmigacha yashab faoliyat yuritgan jadid va ma’rifatparvar olim, mohir pedagog. U haqida o‘z zamonasida hamda vafotidan so‘ng adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar tomonidan ko‘plab fikr-mulohazalar, xotiralar bildirilgan. Ularda olim hayoti va ilmiy faoliyati yuzasidan qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Mazkur yodnomalarni jamlash va izohtalab o‘rinlarga to‘xtalish foydadan holi bo‘lmaydi.

Materiallar va usullar

Mazkur maqola oldiga qo‘yilgan masalani yechishda olimning “Tazkirai Qayyumiy”, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”, “Tazkirat ush-shuaro” asarlari; olim hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma’lumotlar jamlangan arxiv materiallari, turli yillarda shogirdlari, avlodlari, izdoshlari tomonidan yozilgan maqolalar, turli nashr manbalaridan foydalanildi.

Mazkur manbalar tahlilida biografik, psixologik, sistem-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Po‘latjon domulla Qayyumiy 1885-yilda Xo‘qandi latifning Xo‘jand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallasi (hozirgi 1-Sharq ko‘chasi)da dunyoga kelgan. Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasida №2931/1 raqamli konvertda ustozning 1945-yil mart oyida o‘z qo‘li bilan yozgan quyidagi tarjimai holi saqlanadi. Tarjimai hol muallif dastxatida bitilgani uchun tahrirsiz havola qilamiz.

“Men Qayyumov Po‘latjon o‘zbek. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvonim bor. Asosiy hunarim o‘qituvchilikdur. O‘rta ma’lumotga ega bo‘lib, 34 yillik xizmat stajim bor. Ijtimoiy kelib chiqishim xizmatchi.

Men Qo‘qon shaharida I Sharq ko‘chasidagi hozirgi turgan hovlim bo‘lgan №15 domda 1885-yil may oyida tug‘uldim. Bobom xonlar xizmatida to‘pchilik xizmatida bo‘lgan kishi. Otam yana qalamkashlik bilan xizmat qilib kun ko‘rgan kishi edi. Oti mulla Qayyum mirzadur. Bobomni oti Abdurahim mirza. Otam 1913-yilda 73 yoshda o‘ldi. Onam: Poltabibi o‘qigan bo‘lib asli qishloqdan edi. U aroba tuzatadigan kosibning qizi bo‘lib, otamning 2nchi xotini edi (1nchisi o‘lgandan keyin olgan). Otamni eng so‘ngi bolasi edim. Yetti yoshimda maktabti eski usulda masjid yonidagi “diniy” maktabga

kirdim. 1900-yilda Qiyot madrasada o‘qudim. 2nchi yili otam kambag‘allashdi. Men xizmatda bo‘ldim, bozor ijarachilarida izbor yig‘ish blan. 1906nchi yilda “Russkoy tuzemnoy” shukulda 6 oy o‘qidim. 1910nchi yilgacha paxta ishida xizmat qildim. Obidjon Mahmudovda ham boshqalarda bo‘lib, Mirzolim blan pryomshik bo‘lib 42nchi zavodda turdim. 1991inchi yilda jadid maktabida o‘qituvchi bo‘lib to 1917nchi yilgacha xususiy maktab tutib keldim. 1918inchi yil sentyabridan maktab o‘qituvchisi ham 3inchi sonli maktabga mudir bo‘lib ishladim. 4inchi detdomda mudir bo‘lib ishladim. 4-, 7-, 9-maktablarda muallimlik, so‘ngra medrabfak, selxoz rabfak, kolxoz oliy maktabi uchkombinatlarda 37nchi yilgacha til va adabiyot o‘qitib keldim. 1938inchi yilda 1942nchigacha 16-sonli o‘zbek maktabida muallim ham ilmiy mudir bo‘lib ishladim. Undan chiqib, oilaviy sharoitimga binoan Qo‘qon rayonga borib o‘rtoq Usmon Yusufov nomidagi kolxoz qoshidagi maktabda o‘qituvchi bo‘lib 1944inchi yil mart cheslosigacha unda ishladim. Kasalligim sababli rayon maorifi tomonidan muolajaga yuborildim. Nihoyat 1944inchi yil 26/III martda II daraja “invalid” topilib ishdan bo‘shadim. 1944-yil I/VI cheslodan boshlab Qo‘qon shaharidagi Krayevay muzeyga ilmiy xodim bo‘lib, tarix bo‘limiga ishga tushdim. 1944inchi yil I/VIII chesloda menga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” deb unvon berildi. Bu kungacha shu xizmatda kelmakdaman. Kasalligim “tuber kuluz”. Bir qizimam o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Katta o‘g‘lum furuntda xizmat qilmakda, bir o‘g‘lum SAGUda o‘qumakda. Bir o‘g‘lum nef-noy texnikomda o‘qiydi. Xotunim va 1 bolam, 2 nabiram qaramog‘imdadur. O‘zim 1920nchi yilda Qo‘qonda ochilgan bir yillik ta’lim-tarbiya maktabida o‘qudim. Yana turli kurslarda bo‘ldim. Qo‘qonda ochilgan 4 yillik kechki ta’lim-tarbiya institutining til-adabiyot fakultasini 2nchi kursini bitirib chiqdim 1931inchi yilda. Farg‘ona shahridagi yozgi tarix kursini bitirib, V-VI-VII klasslarga tarix darsi berish uchun guvohnama berilgan. 1919inchi yildan buyon sayuz a’zosiman” [1].

Qayyumiy domlaning xalq maorifi sohasidagi xizmatlari uchun unga 1927-yilda “Qizil proletariat rahmatnomasi”, 1944-yilda faxrli “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni berilgan.

Olimning ilmiy faoliyatini to‘rt davrga bo‘lish mumkin:

1. 1910-1917-yillar: Po‘latjon Qayyumiyning jadidchilik harakatidagi ishtiroki. Hamza, Sulaymonquli Rojiy, Ibrohim Davron, Ashurali Zohiriy, Muhammadjon Xoliqiy, Salohiddin Majidiy, Abdulvahhob Ibodiy, Salohiddin Majidiy, Yunusjon Og‘aliqov, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Murodiy, Abdulla Juvonmardiyev, Abdullajon Nasimiy, Abdullajon Nosirov, Qavomiddin Munirov, Abdulfattoh Rasulov kabi ma’rifatparvarlar bilan bir safda turib mehnat qildi.

Po‘latjon Qayyumiy 1911-yilda sarmoyador qo‘shnisi Obidjon Mahmudov ko‘magida o‘zi yashab turgan, Haydarbek mahallasida yangi usul maktabini ochdi.

1914-yilda O.Mahmudov Farg‘ona vodiysi madaniy hayoti tarixida birinchi bo‘lgan o‘zbek tilidagi “Sadoyi Farg‘ona” gazetasini ta’sis qildi. Gazetaning tashkiliy ishlarida P.Qayyumov jonbozlik ko‘rsatib, gazeta muxbiri sifatida ham faoliyat olib brogan [2. B. 2].

2. 1917-1945-yillar. O‘z muallimlik faoliyatini hukumat tomonidan ochilgan maktab-internatlarda davom ettirdi. 1944-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni berildi.

3. 1945-1955-yillar. Qo‘qon o‘lkani o‘rganish muzeyida tarix bo‘limining mudiri vazifasida xizmat qildi. O‘zbek adabiyoti va tarixiga oid nodir qo‘lyozmalarni to‘plash borasida samarali ishlar olib borildi. Ular asosida olim Maxmurning 69 ta she’ridan iborat devoni (1950), Furqat qo‘lyozma devoni (1959), Anbar otin she’rlar to‘plami (1963)ni tuzdi. Mazkur manbalar olimga o‘z asarlarini yozishida tayanch vazifasini o‘tadi. Bundan tashqari, Muqimiy, Zavqiy, Hamza kabi ma’rifatparvarlarning qo‘lyozmalari to‘plandi [2. B. 2].

4. 1955-1964-yillar. Ilmiy merosining asosi dunyo yuzini ko‘rdi. “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” antologiyasi, “Tazkirayi Qayyumiy”, “Tazkirat ush-shuaro” tazkiralari yozildi*. Bundan tashqari, tazkirachilik sohasida tarjimalarni amalga oshirdi. Bular, o‘z navbatida, olimning asarlari yuzaga kelishiga zamin hozirladi [3. B. 15–16].

“Tazkirai Qayyumiy” (1953–1960) oddiy daftar qog‘oziga safsar siyoh bilan mayda arab xatida, o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, 324 nafar shoir haqida ma’lumot va ularning ijodidan 10259 misra berilgan. Tazkira qalin qora rangli karton muqovasidan tashqari ichki muqovaga ham ega. Uning ichki jildiga muallif qo‘li bilan yozilgan

*“Tazkirat ush-shuaro”ning so‘nggi sahifasida muallifning o‘z qo‘li bilan yozilgan so‘ngso‘ziga ko‘ra, u hind shoirlari haqida ham tazkira yozish uchun materiallar to‘plagan. Biroq vafoti tufayli bu ish amalga oshmay qolgan.

dastxatga ko‘ra asar 1960-yilning 15-sentabrida nihoyalangan. Ushbu qo‘lyozmaning yagona nusxasi O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida №734 invertar raqami ostida saqlanmoqda.

Tazkira ikki chiziqli oddiy daftar qog‘ozlariga safsar siyoh bilan mayda arab yozuvida, o‘rtacha nasta’liq xatida 11x18 sm hajmda 22 qatordan yozilgan. Daftar qog‘ozlari muallif tomonidan birlashtirilib, tikib chiqilgan. Daftarning hajmi: 16x20. Keyinroq muqova qilingan. Muqova qora rangli, oddiy karton qog‘ozdan qilingan. Har bir sahifa qizil chiziqlar bilan besh bo‘lakka ajratilgan. Uch bo‘lak kichik hajmli. O‘ngdan ikkinchi bo‘lakka tartib raqami, uchinchi bo‘lakka shoir nomi yozilgan. Matn o‘n santimetrli to‘rtinchi katta bo‘lakka joylashtirgan. Beshinchi bo‘lak bo‘sh qoldirilgan. Sahifalar muallif tomonidan raqamlangan. Jami 631 sahifa. Daftar muqovasi qalin qora karton qog‘ozdan yasalgan. Ichki muqova ham kartondan qilingan. 432-sahifa ochiq qoldirilgan.

Ichki muqovada “25 yillik yubiley” degan kichik maqola va Po‘latjon Qayyumiyning surati bor. Bu maqola Toshkentda chiqadigan “Mash’ala” (hozirgi “Guliston”) jurnalining 1932-yilgi bir sonidan qirqib olib yopishtirilgan. Maqola matni lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvida. Unda Qo‘qon shahar maorif uyushmasi va maorif bo‘limi Po‘latjon Qayyumiyning 25 yillik o‘qituvchilik faoliyatini nishonlamoqchi ekanligi yozilgan.

Tazkirada shoirlar ijodidan keltirilgan she’rlar ikki qator qilib joylashtirgan. Misralar orasiga ajratuv belgilari qo‘yilgan. Ba’zi o‘rinlarda baytlar va muxammas bandlari orasiga siyohda gul solingan. Ayrim sahifalarda satrlar g‘oyat zich yozilgan. Qo‘lyozma boshida tazkiraga kiritilgan shoirlarning ro‘yxati alifbo tarzida keltirilgan. Bu ro‘yxatda o‘sha shoirlar to‘g‘risidagi ma’lumot berilgan sahifalar ko‘rsatilgan. Shuningdek, nomlarning arab harfidagi tartib raqami ham berilgan [4].

Olimning “Tazkirat ush-shuaro” asarida esa 1782 nafar forsiyzabon shoirlar haqida ma’lumotlar hamda ularning she’rlaridan namunalar berilgan [2. B. 2].

Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasida saqlanayotgan ma’lumotlarga ko‘ra olimning yana bir, “Turkiy she’rlar to‘plami” nomli tazkirasi ham bo‘lgan. Adabiyotshunos olim O.Jo‘raboyevning ta’kidlashicha, mazkur asar “Tazkirai Qayyumiy”ning boshlang‘ich variantlaridan biri bo‘lgan. Aziz Qayumovning e’tiroficha, mazkur tazkiraning yozishiliga Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” asari katta ta’sir qilgan. Ayniy asari bilan tanishib chiqqach, olim “Namunai adabiyoti o‘zbek”ni yozishni maqsad qilgan [5]. Shu maqsadda tuzilgan “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” qo‘lyozmasi G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeyida saqlangan. 2017-yilda “Buyuk allomalar” muzeyiga ko‘chirilgan. Hozirda №953 inventar raqamida ostida “XX asr allomalari” zalidan joy olgan [6].

Olim xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ib olish va qayta ishlash ustida samarali mehnat qildi. Hamrobibi Umarali qizidan yozib olgan va umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-sinf adabiyot darsligidan joy olgan “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi buning yorqin namunasidir.

Olim ustozning eng katta yutuqlaridan biri arab va fors tillaridan mukammal xabardorligidir. Rahmatullohqori Vozeh Buxoriyning “Tuhfatu-l-ahbob fi tazkiratu-l-as’hob” (“Suhbatdoshlar tarjimai holidan do‘stlarga tuhfa”), Afzal Pirmastiyning “Afzalu-t-tazkir fi zikru-sh-shuaro va-l-ash’or”, Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” tazkiralarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar jamlansa, 2500 atrofidagi ijodkor haqida ma’lumot bergan bo‘ladi [7.B.3]. Vozeh tazkirasining tarjima qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi [2. B. 2]

“O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida №10018, №10041 inventar raqamlari ostida olim tomonidan 1956-yil 24-martda yozib tugallangan, ikki jilddan iborat o‘zbek klassik adabiyotiga doir qo‘lyozma antologiyasi saqlanmoqda. Bu antologiya 1132 betdan iborat bo‘lib, unda 2270 nafar shoirning tarjimai holi, qisqacha ijodiy faoliyati hamda ularning asarlaridan namunalar keltirilgan” [7. B. 3].

Ahmadjon Madaminov shunday degan edi: “Po‘latjon Qayyumov umrining oxirigacha o‘zbek xalqining qadimiy va boy adabiy merosini to‘plash, xususan, Qo‘qon adabiy muhitida yetishgan shoirlar hayoti va ijodiga oid manbalarni yig‘ish, o‘rganish bilan sidqidildan shug‘ullandi. Davlat fondlaridan, shaxsiy kolleksiyalardan adabiy materiallarni qunt va sabot bilan bir yerga jamladi, marhum shoir, xattot va san’atkorlarimizning avlodlarini izchillik bilan daraklab, surishtirib topib, ulardan fan uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan xotiralarni yozib oldi, barhayot ijodkorlarimiz bilan bevosita va bilvosita aloqa bog‘lab, mazkur shaxslarning tarjimai hollarini, ijodlaridan namunalarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Ana shu serdiqqat, mashaqqatli mehnatning samarasi o‘laroq ustozning “Qo‘qon adabiyoti” asari vujudga keldi [8. B. 3].

Olim tarixshunoslik va o‘lkashunoslik sohalarida ham bir qator muvaffaqiyatli ishlarni amalga oshirgan. Biroq ular hali-hanuz o‘rganilmay, qo‘lyozmalar holida qolib ketgan. Eng achinarlisi shundaki, ularning taqdiri ham noma’lumligicha qolmoqda. N.Qayumovning qo‘lida otasi tomonidan yig‘ilgan Qo‘qon shahrining xonlar davridagi qiyofasi, Haydarbek mahallasi o‘tmishi bo‘yicha materiallar, shoira Mahzuna, raqqosa Mastura, shoirlardan Muqimiy, Zavqiy va Hamza haqidagi ilmiy faktlar, qo‘lyozma manbalar bo‘lgan. Nasimxon domla vafotidan so‘ng, ularning taqdiri qanday bo‘lganligi noma’lum. Po‘latjon Qayyumiy ilmiy izlanishlar olib borgan xonalar olimning nabiralari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlarida buzib yuborilgan. Ularda mavjud bo‘lgan manbalar taqdiri haqida tayinli javob yo‘q. Izdoshlarining “Po‘latjon Qayyumiy uy muzeyi”ini tashkil etish borasidagi harakatlari samarasiz tugagan.

Shunday bo‘lsa-da, arxiv ma’lumotlari orasidan olimning tarixshunoslik va o‘lkashunoslik sohasida amalga oshirgan ishlaridan ayrim namunalarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldik. “Po‘latjon Qayyumiy keng ko‘lamda ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi. Qo‘qon tarixini o‘rganishga jiddiy kirishdi. Shu maqsadda davlat xazinalaridagi yuzlab tarixiy manbalar bilan tanishdi, ko‘pni ko‘rgan, xabardor kishilardan, mashhur tarixiy shaxslarning avlodlaridan Qo‘qon tarixiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni, muhim faktlarni yozib oldi. Qo‘qondagi o‘nlab mashhur mahallalar nomlarining kelib chiqish tarixlarini ham Po‘latjon Qayyumiy aniqlagan. Qo‘qon tarixini o‘rganish borasidagi muttasil izlanishlari natijasida “Qo‘qon tarixi” nomli kitobi maydonga keldi” [8. B. 3]. Bundan ko‘rinadiki, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” dastlab ikki alohida kitob: “Xo‘qand tarixi” va “Xo‘qand adabiyoti”dan iborat bo‘lgan. Keyinchalik, olim tomonidan bitta asar holiga keltirilgan. Quyida uning tarix sohasida yozgan ayrim qo‘yozmalarini tahrirsiz havola qilamiz:

“**Feodalizm davridagi soliqlar va ularning turlari**

Feodalizm davrida tubandagi soliqlar bo‘lgan edi:

1. Xiroj nomli soliq: g‘alla bilan olinur edi. Sug‘oriladigan yerdan 1/5, lalmi yerdan 1/10.
2. Tanob puli: yerning katta-kichik bog‘, sabzavotidan pul blan.
3. Zakot: sotuchidan va hayvondan, parrandadan. Musulmonlardan 1/40, boshqalardan 1/2.
4. Bozorda savdo etgani uchun.
5. Tarozi puli.
6. Daryodan o‘tganda (kema yo ko‘prik blan).
7. Tuzdan.
8. Tog‘dagi daraxtlardan kumur etganlardan.
9. Dala va dashtlardagi xashaklardan foydalanuvchilardan.
10. Pchan, kug‘adan olinadigan soliq.
11. Suvdan foydalangani uchun soliq.
12. Mirobboshiga beriladigan 16 km (kilogramm demoqchi) miqdoridagi g‘alla. Shul xirmanda imom uchun haqqula va boshqa kapsan nomidagi turli soliqlar bunga kirmaydi.

Bu ko‘rsatilganlar doimiy soliqlar bo‘lib, tartib blan olinar edi. Bulardan boshqa yana boshqa soliqlar:

1. Tarakani – o‘lgan kishining mulk-ro‘zg‘ori qimmati hisobidan 1/4.
2. Nkoxona – erga tegadirgan qizdan 10 tanga, juvondan 5 tanga soliq.
3. Balog‘atga yetgan er va qizdan bir yo‘la olinadigan soliq.
4. Ulov puli – urush vaqtida har bir oila soniga 21 tangadan 25 tangagacha.
5. Dalloliq nomida bo‘lib – har bir mulkni sotishdan olinadir edi (Xazinaga 40 ming tanga kelar edi).
6. Cho‘p puli – o‘tuchilarning tog‘ va daladagi o‘tlardan foydalangani uchun.
7. To‘y puli – to‘y etuchilardan olinadigan soliq.
8. Tog‘ mevalarini ijaraga berishdan bir yilga ikki ming tillo olingan.
9. Soman puli – natura bilan 1/7 olingan.
10. 2 dan ortiq biyasi, sgiri bo‘lsa ma’lum foiz haq olinardi.
11. Tashqariga chiqarib sotilgan g‘alladan olinadirgan soliq edi.

Bu 22 (sanoqda 23ta kelmoqda – *L.A*) soliqning to‘lovchilar kambag‘al kosib va o‘rta hol va kambag‘al dehqonlar bo‘lib, toqatsiz ravishda qiynalar edilar. Xonlikka qarshi qo‘zg‘alonlar

bo‘lib turar edi. 1875inchi yilda qo‘zg‘alonga butun Farg‘ona ayaqqa turdi. Nihoyat xon qochib ketishga majbur bo‘ldi. Noiblari, amaldorlari o‘ldirildi” [1].

Qadimiy O‘zgent shahari

Hozir bu shahar Qirg‘iziston SSR shul ismdagi rayonga markaz bo‘lib, anga obodlangandir. Eradan 104 yil oldin bu shaharga Xitoy sayyohi Sharq tomondan kelib kirgani ma’lumdir. Hozirgi O‘zgent qadimiy O‘zgentning bir yoniga siljigan bo‘lib, qadimiy O‘zgent xarobalari blan tutash edi. Bu xarobalarni 1948inchi yilda sovet orxialog olimi professor Brinshtash tomonidan kavlanib ko‘rilib, tekshirish natijasida shahar sxemasi tuzildi. Bunda ko‘rsatilishicha: bu qadimiy shahar ko‘p muddatli o‘z hayotida bir necha davrlarni o‘tkazganligi sxemada ko‘rsatiladi. Shahriston I eraning I asridan turib, XIX asr boshlariga kelib xarobaga aylangan. Bu yerda ark bo‘lgan. Shahriston II esa noma’lum vaqtlardan boshlab, eramizning XIII asriga kelib xarobaga aylangan. XI va XII asrlardagi mazor va qabrlar saqlangan. Shahriston III qismi XVI asrgacha yetib kelgan. Bu joyda katta bir ibodatxona bo‘lgani xarobadan bilinadi” [1].

1946-yil 15-dekabrda Qayyumiy domla o‘zi tug‘ilib o‘sgan Haydarbek mahallasining kelib chiqish tarixi, Qo‘qon xonligi, chor Rossiyasi sobiq Sovet davrida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha o‘zining “Haydarbek mahallasi” nomli kichik o‘lkashunoslik asarini yozib tugallagan. Uning yozuv mashinkasida ko‘chirilgan nusxasi Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasida saqlanmoqda. 33 bet hajmda. A4 format qog‘ozga tushirilgan. Hajmi: 24x16. Manba yomon saqlangan. 24-33-betlarga suv tegishi va nam ta’sirida yozuvlarning ba’zi qismlari shuvalib ketgan. 20-betda muallif o‘z qo‘li bilan kirill alifbosida bergan izohi mavjud [1].

Po‘latjon Qayyumiyning pedagoglik mahorati ham tahsin qilarlik darajaga yetgan. Uning shogirdlari ichidan jadid adabiyotining tengsiz shoiri – Usmon Nosir (1912-1944); O‘zbekiston xalq yozuvchisi – Abdulla Qahhor (1907-1968), shoir, yozuvchi va dramaturg, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi – Sobir Abdulla; adabiyotshunos, ijodkor, jurnalist – Sharif Rizo; O‘zSSR madhiyasi matni muallifi (T.To‘la bilan birgalikda), shoir, yozuvchi, tarjimon – Temur Fattoh; tarjimon va ijodkor Adham Rahmat; olimlardan: T.Zohidov, M.O‘rozboyev, U.Oripov, J.Saidov, O.Aminov, M.Qoriyev, S.Sodiqov, Y.Otabekov, S.Sirojiddinov, T.Sarimsoqov kabilar yetishib chiqqan.

Olim 1964-yil 27-avgustda 79 yoshida olamdan o‘tgan. Qo‘qon shahar Shayxon qabristoniga dafn etilgan. Shayxon qabristonining kun chiqar tarafida Po‘latjon Qayyumiy qabriga yodgorlik xati yozilgan.

1985-yil 28-noyabrda Qo‘qon DPI zalida “Po‘latjon Qayyumiy tavalludining yuz yilligi” yubileyi o‘tkazilgan.

Po‘latjon Qayyumiyning qo‘lyozma asarlari

T/r	Inv./r.	Qo‘lyozma nomi	Saqlanayotgan joyi
1	№734	Tazkirai Qayyumiy	O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi
2	№953	“O‘zbek adabiyoti namuna daftari”	G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeyida saqlangan. 2017-yilda “Buyuk allomalar” muzeyiga ko‘chirilgan.
3	№10041	“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”	O‘zR FA ShI Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti
4	№10018	“Tazkirat ush-shuaro”	O‘zR FA ShI Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti
5		Po‘latjon Qayyumiy kundaligi	O‘g‘li Nasimxon Qayyumov qo‘lida bo‘lgan deb taxmin etiladi. Uning vafotidan so‘ng noma’lum.

Po‘latjon Qayyumiy va uning asarlari haqidagi arxiv materiallari

T/r	Inv./r.	Arxiv nomi	Saqlanayotgan joyi
1	№42	Po‘latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.)	Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi
2	№43	Azizxon Qayumov	Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi
3	№3257	Po‘latjon Qayyumiy	“Buyuk allomalar” muzeyidagi “XX asr allomalari” zali

P.Qayyumiy va uning asarlari haqida ma’lumot beruvchi nashriy manbalar

№	Muallif	Asar nomi	Manba
1	А.Қаюмов	“Қўқон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар)”	– Тошкент: Фан, 1961. – 360 бет.
2	М.Олимов	“Халқ ўқитувчиси”	“Совет мактаби” журнали, 1963. 2-сон. – Б. 4.
3		P.Qayyumiy vafotiga yozilgan nekrolog	“Ўзбекистон маданияти” газетаси. 29.08. 1964. – № 70 (893). – Б. 4.
4	Т.Шукуров	“Умр боқий”	“Меҳнат байроғи”, 1985 йил 13 ноябрь сони. – Б. 3.
5	М.Мамажонов	“Муаллим”	“Меҳнат байроғи”, 1985 йил 20 ноябрь сони. – Б. 4.
6	А.Мадаминов	“Устоз муаллим, адабиётшунос олим”	“Меҳнат байроғи”, 1985 йил 27 ноябрь сони. – Б. 3.
7	Пўлатжон Қайюмий	“Тазкираи Қайюмий”	– Тошкент: ЎзР ФА ҚИ таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – 713 бет.
8	С.Самандарова	“Тазкираи Қайюмий – қўлёзма манба” // ф.ф.н. дис. монографияси.	– Тошкент: ЎзР ФА Ҳ.С.Сулаймонов номидаги ҚИ ихтисослаштирилган босмахонаси, 1998. – 21 бет.
9	С.Самандарова	“XX аср ўзбек тазкираси”	– Тошкент: ЎзР ФА Ҳ.С.Сулаймонов номидаги ҚИ ихтисослаштирилган босмахонаси, 1998. – 34 бет.
10	Пўлатжон Қайюмий	“Тазкират уш-шуаро” (1-2-китоб)	– Тошкент: ЎзР ФА Давлат адабиёт музейи, 2006.
11	Р.Тожибоев	“Маърифатга бахшида умр”	“Қўқон садоси”, 20.04.2006.
12	М.Ғаниев	“Тазкираи Кайюми”	– Тошкент, 2009.
13	А.Қаюмов	“Асарлар. 7-жилд (1-китоб)”	– Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 278 б.
14	А.Қаюмов	“Асарлар. 7-жилд (2-китоб)”	– Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 250 б.
15	Пўлатжон Қайюмий	“Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти”	– Тошкент: Тамаддун, 2011. – 380 б.
16	О.Жўрабоев	“Адабий муҳит ва тарихнинг ўзига хос тадқиқи” // “Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти”	– Тошкент: Тамаддун, 2011. – 380 б.
17	Э.Самандар	“Улар шундай эдилар” // “Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти”	– Тошкент: Тамаддун, 2011. – 380 б.
18	Ш.Азимжонова Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар, – Қ., 2020. – Б. 91-94	“Тазкирайи Қайюмий” ва Тошкент адабий муҳити”	Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар. – Қўқон, 2020. – Б. 91-94.
19	M.Asadov	“Tazkirai Qayyumiy”ga doir ayrim mulohazalar”	Qo‘qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans – Qo‘qon, 2022. – B. 26-29.
20	D.Abdullayeva	“Tazkirai Qayyumiy”da Andijon shoirlari haqida”	Qo‘qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans – Qo‘qon, 2022. – B. 55–62.
21	S.Usmonova, G.Murodova	“Tazkirai Qayyumiy”dagi ayrim oykonimlar xususida”	Qo‘qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans – Qo‘qon, 2022. – B. 558–561.

Po‘latjon Qayyumiyga atab yozilgan yoki uning obrazi uchrovchi tarixiy-badiiy, esdalik-xotira asarlar

T/r	Muallif	Asar nomi
1	Habibiy	Ta’rih (olim vafotiga)
2	A.Qahhor	“O`tmishdan ertaklar” qissasi
3	Qori Niyoziy	“Hayot maktabi” xotira kitobi

4	T.Jalolov	“O`zbek shoiralari” tadqiqoti
5	Y.Sulaymon	“Olis yulduzlar” ocherki
6	M.Mamajonov	“Muallim” muvashshahi
7	I.Mirzo	“Usmon Nosir” pyesasi

Mazkur jadvallarda keltirilgan manbalardan tashqari, Qo‘qon adabiy muhitiga oid bo‘lgan deyarli barcha dissertatsiyalar, monografiya, ilmiy risola va darsliklarda Po‘latjon Qayyumiy asarlariga murojaat etilgan.

Xulosa

Po‘latjon Qayyumiyning izlanishlari Qo‘qon adabiy muhitining keng ko‘lamda o‘rganila boshlanishiga amaliy turtki bo‘ldi. Olimning zahmatli mehnatlari evaziga yuzaga kelgan asarlari, olim tomonidan samarali tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlari o‘z davridan to bugunga qadar mumtoz adabiyot, xususan, Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha amalga oshirilib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlarga birlamchi manbalardan bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Пўлатжон Қайюмов (1885 й. –1964 й. 27 август) йиғмажилди. №42. – Қўқон: Қўқон давлат музейи қўриқхонаси архив материаллари.
2. *Тожибоев Р.* Маърифатга бахшида умр // Қўқон садоси, 2006 йил 20 апрель.
3. *Самандарова С*. Тазкираи Қайюмий – қўлёзма манба. – Тошкент: ЎзР ФА Ҳ.С.Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институтининг ихтисослаштирилган босмахонаси, 1998. – 21 б.
4. Пўлатжон Қайюмий. Тазкираи Қайюмий (қўлёзма). ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. – №734.
5. Азизхон Қаюмов йиғмажилди. №43. – Қўқон: Қўқон давлат музейи қўриқхонаси архив материаллари.
6. Пўлатжон Қайюмий йиғмажилди. №3257. – Қўқон: Қўқон давлат музейи қўриқхонаси Буюк алломалар музейи (филиал), XX аср алломалари зали, Пўлатжон Қайюмий бурчаги.
7. *Шукуров Т*. Умр боқий // Меҳнат байроғи, 1985 йил 13 ноябрь.
8. *Мадаминов А*. Устоз муаллим, адабиётшунос олим. // Меҳнат байроғи, 1985 йил 27 ноябрь.
9. *Қаюмов А*. Қўқон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1961. – 360 б.
10. *Қ юмов А.* Асарлар. (1-китоб). 7-жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 278 б.
11. *Қайюмов П*. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти / Нашрга тайёрловчи А.Қаюмов. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – 377 б.

PHENOMENON OF POLATJON KAYYUMI

L.M.Axmadaliev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 5(65). 75-82.

[1]State Literature Museum named after Alisher Navoi, Tashkent, 100011, str., Navoiy, 69 (Uzbekistan). E-mail: navoimuseum@academy.uz

Keywords: tazkira, manuscript, calligraphy, lithography, literary studies, autograph, archive.

The article talks about the scientific heritage of Polatjon Qayumi, in particular, the activities of surveyors. His ideas about his creativity, struggle and enlightenment, pedagogical activity are summarized, comments and opinions are stated. Also, the structural structure and content of tazkiras written and translated by the scientist, their importance in Uzbek literary studies were discussed. Sources of his life and scientific activity are presented on the basis of tables. Polatjon Kayyumiy is a modern and enlightened scientist, a skilled pedagogue who lived and worked from the last quarter of the 19th century to the second half of the 20th century. Literary scholars, poets and writers have written many thoughts and memories about him both during his time and after his death. They contain valuable information about the scientist's life and scientific activity. It would be useful to summarize and comment on these notes. The scientist's works "Tazkirai Qayyumi", "History of Khoqand and his literature", "Tazkirat ush-shuaro" are used to solve the

problem set before this article; includes information about the scientist's life and scientific activity, the fact that the scientist received the title of "Honored Teacher of Uzbekistan" in 1944, his death in 1964, the 100th anniversary of his birth in 1985, as well as his students and descendants from different years received archival materials, articles. written by followers, using various publication sources.

Autobiographical, systematic-structural, comparative-typological methods were used in the analysis of these sources. Polatjon Qayyumi's research was a practical impetus to study the Kokan literary environment on a large scale. The works created as a result of Polatjon Qayyumi's painstaking efforts, the researches carried out effectively by the scientist serve as the main source for the scientific research conducted on classical literature, in particular, the literary environment of Kokand. from his time to the present. The results show that it is necessary to find the manuscripts written by the scientist in the fields of historiography and local history, give them a scientific description, and conduct scientific research. In addition, the scientist's personal diaries are also found, and if they are scientifically discussed, valuable information about the scientist's life and work will be obtained. It is necessary to study the scientist's works "Tazkirai Qayyumi", "History of Khoqand and his literature", "Uzbek model literature", "Collection of Turkish poems" from the point of view of comparative literature. These issues are one of the tasks facing literary scholars, especially textual studies and source studies.

References:

1. №42. *Po‘latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.) yig‘ma jildi* [№42. Collect vol of Polatjan Kayyumi (1885-y. – 27-august 1964-y.)]. Kokand: Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi arxiv materiallari.

2. Tojiboev, R. (2006). Ma’rifatga baxshida umr [Life devoted to enlightenment]. *Qo‘qon sadosi.* April 20.

3. Samandarova, S. (1998). Tazkirai Qayyumiy – qo‘lyozma manba [Tazkirai Kayyumi – manuscript source]. Tashkent: O‘zR FA H.S.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar institutining ixtisoslashtirilgan bosmaxonasi.

4. Kayyumi, P. (1960). Tazkirai Qayyumiy (qo‘lyozma) [Tazkirai Kayyumi (manuscript)]. Tashkent: O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. No 734.

5. №43. Azizxon Qayumov yig‘majildi [№43. Collect vol of Azizkhan Kayyumi]. Kokand: Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi arxiv materiallari.

6. №3257. Po‘latjon Qayyumiy yig‘majildi [№3257. Collect vol of Polatjan Kayyumi] . Kokand: Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi Buyuk allomalar muzeyi (filial) XX asr allomalari zali Po‘latjon Qayyumiy burchagi.

7. Shukurov,T. (1985) Umr boqiy [Lifetime of eternal]. *Mehnat bayrog‘i*. November 13.

8. Madaminov, A. (1985) Ustoz muallim, adabiyotshunos olim [Master teacher, literary scholar]. *Mehnat bayrog‘i.* November 27.

9. Kayumov, A. (1961) *Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar)* [Kokand literary environment (18-19th centuries)]. Tashkent: Fan.

10. Kayumov, A. (2010). *Asarlar (*1-kitob) [Books. (Book 1)]. Vol.7. Tashkent: Mumtoz so‘z.

11. Kayyumi, P. (2011). *Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti* [Kokand history and its literature]. Tashkent: Tamaddun.

Muallif haqida ma’lumot:

AXMADALIYEV Lochinbek Maxamadyusuf o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti. E-mail: nihcol95@gmail.com